TAJRIBAVIY MOYAK SARATONIDA NUR TERAPIYADAN KEYIN YO'G'ON ICHAK SHILLIQ QAVATIDAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

A.H. Bafoyev, J.J. Bahronov. Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Kalit so'zlar: moyak saratoni, nur terapiya, yo'g'on ichak, kripta, semiz hujayralar

Dolzarbligi. Onkologik kasalliklarni nur terapiya bilan davolashda ichak shilliq qavatining shikastlanishi davolash toksikligini oshiradi, kasalxonada yotish muddatini uzaytiradi. Moyak saratonida nur terapiya fonida yo'g'on ichakda kechadigan morfologik o'zgarishlar yetarli o'rganilmagan.

Maqsad. Tajribaviy moyak saratonida nur terapiyadan keyin kalamushlar yo'g'on ichagi shilliq qavatidagi tuzilish va hujayra tarkibi o'zgarishlarini aniqlash.

Material va usullar. 6 oylik 201 ta oq zotsiz erkak kalamushdan 161 tasiga 7,12-dimetilbenzantratsen kantserogeni teri ostiga 0,1 mg dozada yuborilib, 111 tasida (68,9%) moyak saratoni chaqirildi. Nazorat guruhi 40 ta hayvondan, nur terapiya olgan guruh 28 ta hayvondan iborat bo'ldi. Nur terapiya 10 kun davomida kuniga 0,2 Gy (umumiy 2 Gy) dozada o'tkazildi. 4–6 mkm qalinlikdagi parafin kesmalar gematoksilin-eozin va Mallori usulida bo'yaldi, kripta chuqurligi va hujayra elementlari morfometrik hisoblandi.

Natijalar. Nur terapiya fonida barcha qismlarda o'tkir yallig'lanish belgilari rivojlandi, shilliq qavat arxitektonikasining tiklanish jarayonlari buzildi. Terminal sohada qadahsimon hujayralar kamaydi, hujayra tarkibida limfotsitlar, makrofaglar va yakka neytrofillar ustun bo'ldi. Nazoratga nisbatan kripta chuqurligi 173,51±0,41 mkm dan 156,12±0,37 mkm gacha (10,02% ga) qisqardi. Qadahsimon hujayralar 66,55±0,51 dan 61,27±0,54 gacha, ustunsimon hujayralar 32,62±5,47 dan 18,98±3,1 gacha kamaydi. Shu bilan birga semiz hujayralar 5,15±0,35 dan 12,92±0,54 gacha (taxminan 2,5 marta), limfotsitlar 19,85±0,67 dan 33,92±0,69 gacha, makrofaglar

3,54±0,56 dan 7,11±0,68 gacha (2 marta), plazmotsitlar 10,85±0,49 dan 14,54±0,68 gacha, neytrofillar 1,24±0,39 dan 2,15±0,34 gacha oshdi (barcha farqlar $p \leq 0,05$).

Xulosa. Moyak saratonida nur terapiya yo'g'on ichak epiteliysining atrofiyasiga, kriptalar qisqarishiga va shilliq qavatda yallig'lanish hujayralari infiltratsiyasiga olib keladi. Bu o'zgarishlar nur terapiya o'tkazilayotgan bemorlarda ichak shikastlanishining oldini olish zarurligini ko'rsatadi.